



O‘ZBEKISTONDA XALQARO INVESTITSION MUHITNI STATISTIK O‘RGANISH

Xusniddinova Munisa Jamoliddin qizi
TDIU Statistika kafedrası assistenti
e-mail: munisahuniddinova9@gmail.com
+998935119932

Annotasiya:

O‘zbekiston Respublikasi yildan-yilga rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli jabhalarida ulkan ahamiyatga molik yutuq va natijalarga erishib, jahon hamjamiyatida tobora yuksak mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish borasida belgilab berilgan strategik maqsadlar va ularga bosqichma-bosqich erishish bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan vazifalarning izchil amalga oshirilishi, erishilayotgan muvaffaqiyatlarning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: investitsiya, moliya, chet ellik investorlar, kapital, o‘zlashtirish, korxona, asosiy kapitalga investitsiyalar, markazlashgan moliyalashtirish manbalari, iqtisodiyot.

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Xusniddinova Munisa Jamoliddin qizi
TDIU Statistika kafedrası assistenti
e-mail: munisahuniddinova9@gmail.com
+998935119932

Аннотация:

Республика Узбекистан из года в год развивается, добиваясь значительных достижений и результатов в различных аспектах социально-экономического развития, завоевывая все более высокие позиции в мировом сообществе. В



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

связи с этим Президент Республики Узбекистан Ш.М. Основой достигнутого успеха служат последовательная реализация поставленных Мирзиёевым стратегических селей по развитию экономики и четко сформулированных задач по их поэтапному достижению.

Ключевые слова: инвестиции, финансы, иностранные инвесторы, капитал, ассигнования, предприятие, капиталные вложения, централизованные источники финансирования, экономика.

STATISTICAL STUDY OF THE INTERNATIONAL INVESTMENT ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

Xusniddinova Munisa Jamoliddin qizi

TDIU Statistika kafedrası assistenti

e-mail: munisahusniddinova9@gmail.com

+998935119932

Abstract:

The Republic of Uzbekistan is developing year by year, achieving significant achievements and results in various aspects of socio-economic development, and is gaining a higher position in the world community. In this regard, the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. The consistent implementation of the strategic goals set by Mirziyoev for the development of the economy and clearly developed tasks for their step-by-step achievement serve as the basis of the achieved success.

Key words: investment, finance, foreign investors, capital, development, enterprise, investments in fixed capital, centralized sources of financing, economy.

Kirish

Mamlakatimizda investitsion faoliyat sohasida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda qabul qilish jarayonida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni qo'llashga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan

International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 28 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459- soni qarorida ham belgilangan vazifalar natijasida, O‘zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning investitsion siyosat izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va davlat tuzilmalarining investorlar bilan ishlashdagi mas‘uliyatini oshirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish, balanslashgan investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta‘minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda¹. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamizda investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirishni taqozo etadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 139,1 trln. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

So‘nggi yillardagi ularning o‘sish sur‘atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2019- yilda 158,9 % ga yetgan, 2020- yilda pasayib - 90,6 % ni tashkil etgan, 2021- yilda ko‘payib - 102,5 % kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 107,9 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2023 yil yanvar-iyun holatiga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 28 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459- soni qarori.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Asosiy kapitalga investitsiyalar 2023 yil yanvar-iyun holatiga 139,1 trln. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ga o'sgan. YaIM ganisbatan esa 29,6 % ga o'sish qayd etilgan bo'lib, uning tarkibida markazlashgan investitsiyalar 17,1 trln. s'mga, markazlashmagan investitsiyalar esa 122,0 trln. s'mga, xorijiy investitsiya va kreditlar 59,0 trln.s'mga o'sganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi

Investitsion muhit jozibadorligini boshqarish muammolari xorijiy olimlardan Y.Shumpeter, F.Xaek, M.Por- 8 ter, P.Krugman, M.Fujita, M.Mure, K.Maxn, Li-Yu-Xong, R.Jemes va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, xususan, O.A.Biyakov, A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev, V.K.Lomakin, Ya.D.Lisovolik, G.L.Azoev, B.S.Jixarevich, R.Fatxutdinov, Yu.V.Savelev va boshqalarning asarlarida investitsion boshqaruv nazariyalari, investitsion muhit jozibadorligini boshqarish jarayonidagi menejment funksiyalari, davlatning samarali investitsion muhit yaratish jarayonlarini boshqarish masalalari o'rganilgan. O'zbekistonda investitsion muhit va investitsion jozibadorlikni oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish hamda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish masalalari M.Abdusalyamov, T.Axmedov, D. G'ozibekov, Sh.Mustafakulov, A.Qayumov, A.Sodiqov, A.Soliev, N.Haydarov, F.Egamberdiev² va boshqa olimlarning asarlarida o'z aksini topgan. Biroq, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamiga qaramasdan investitsion muhit jozibadorligini boshqarishda hududiy ishlab chiqarish komplekslari, iqtisodiy rayonlashtirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish konsepsiyalari, erkin iqtisodiy va zonal hududlarni boshqarishning tashkiliy uslubiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmagan. Bu esa investitsion muhit jozibadorligini boshqarish yo'nalishlarini chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

² K.B.Tursunov, N.R.Rajabov., Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish, «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» Toshkent – 2021//6-9 bet.



Tadqiqot metodologiyasi

O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini boshqarish masalalari bo‘yicha ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari borasida mustaqil tadqiqotlar olib borish yetarli darajada emas. Mamlakatimizda investitsion muhit jozibadorligi iqtisodchi-olimler tomonidan kam o‘rganilgan mavzulardan biri ekanligi bilan birga, ushbu masalaga hozirda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Xorijiy tadqiqotchilar «investitsion muhit», «investitsion iqlim» kabi kategoriyalarning mazmuni «biznes muhiti» tushunchasiga yaqin deb qarab, uni kapitalni qo‘yishning risklilik darajasi va aniq ob‘ektga investitsiya qilishning jozibadorligi darajasini shakllantiruvchi tashqi shart-sharoitlar majmui sifatida talqin etadilar. Jumladan, S.Yu. Sivakovanning fikricha, mazkur kategoriyalar xorijiy amaliyotda to‘liq sinonim tushunchalar sifatida qo‘llaniladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 28 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-459- soni qarori yuzasidan joriy yilda mamlakatimizni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarning samarali bajarilishiga, amalga oshirilayotgan islohotlarga to‘siq bo‘layotgan omillarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklar mavjudligini namoyon qilmoqda (1 chizma).

KAMCHILIKLAR	Davlat ahamiyatiga molik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini sifatli tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring hamda nazorat qilishni ta‘minlovchi loyiha boshqaruvining yagona tizimi mavjud emasligi;
	Loyihalarni amalga oshirish sur‘ati va samaradorligini tezkor kuzatish imkonini beruvchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga yetarlicha joriy etilmaganligi;
	Davlat va hududiy dasturlarni, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ochiqlik va shaffoflik darajasining pastligi mazkur sohada moliyaviy mablag‘lar maqsadsiz va samarasiz sarflanishi, shuningdek turli xil suiiste‘molchilik holatlarini keltirib chiqarayotganligi;



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

	Amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asoslantirilganligi va rentabelligini tahlil qilish hamda baholash, shuningdek ularning qiymatini oshirib ko'rsatish va boshqa suiste'molchiliklar alomatlarini aniqlash bo'yicha ishlar samaradorligining pastligi.
--	--

1-chizma. Investitsiya loyihalarni boshqarish tizimidagi kamchiliklar³

Investitsion kredit qiymati amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi bilan birga quyidagi omillarga bog'liq hisoblanadi:

- tijorat banki uchun jalb etilgan mablag'lar (depozitlar, banklararo kreditlar) qiymati;
- qarz oluvchi ishonchliligi va risk darajasi;
- mamlakatda yuritilayotgan pul-kredit siyosati;
- kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatlar xarakteri;
- mamlakatdagi mavjud soliq tizimi;
- Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va h.k.

Loyihalarni amalga oshirish sur'ati va samaradorligini kuzatish Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi investitsiya krediti narxiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar mlrd. so'm

Hududlar	2020	2021	2022	2023	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zgarishi	
					(+ ; -)	(%)
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	210195,1	239552,6	266240,0	142008,7	214,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	7089,8	8110,7	10254,0	3496,2	151,7
Andijon	7452,1	9622,6	11176,6	14339,8	9627,9	304,3
Buxoro	10366,6	12183,9	20528,3	21638,3	12027,4	225,1
Jizzax	7900,9	12545,4	9233,6	10373,9	6767,6	287,7
Qashqadaryo	24462,5	20557,6	17359,1	16012,8	-505,7	96,9
Navoiy	17646,3	15688,4	15020,1	17958,1	7378,6	169,7
Namangan	12084,9	12007,2	12982,0	14775,1	6617,0	181,1
Samarqand	10266,7	14656,4	15641,6	18917,1	11855,7	267,9
Surxondaryo	11835,1	10068,2	12037,8	11569,4	4328,8	159,8
Sirdaryo	5869,1	7191,9	8051,8	12354,6	9655,3	457,7
Toshkent	20353,9	21148,6	28113,6	35767,7	24540,8	318,6
Farg'ona	8685,4	11040,0	12625,2	15419,3	9880,2	278,4
Xorazm	5032,0	5391,8	8292,0	8769,7	5755,9	291,0
Toshkent sh.	42458,1	50371,3	58172,7	56847,9	30412,2	215,0

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//”Xalq so'zi” gazetasi, 2022 yil 28 dekabr, № 258 (6952)

International Conference on Educational Discoveries and Humanities


Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma‘lumotlari asosida takidlash mumkinki, 2022 yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 266240,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 114,3 % ga yoki 142008,7 mlrd so‘mga oshgan. Respublikamiz bo‘yicha mutloq miqdorlarda hisoblanganda Toshkent shahri 30412,2 mlrd so‘m bilan yetakchilik qilmoqda, nisbiy miqdorlarda hisoblanganda esa Andijon viloyati 204,3 % bilan ustunlik qilmoqda.



2-rasm. Yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘rish sur‘atlari dinamikasi, % da

2023- yilning yanvar-iyun oylarida jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 12,3 % ni yoki 17,1 trln. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 122,0 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 87,7 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kopaydi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,8 % i yoki 83,1 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 40,2 % yoki 56,0 trln. so‘m moliyalashtirildi. 2023- yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha investitsiya



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha 3 725 ta yirik korxona va 1 184 ta kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan hisobotlar qabul qilindi

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni yoki 9,1 trln, so'mni tashkil etdi.

Xulosa va natijalar

Investitsiyalar portfeli tarkibi ana shularni hisobga olib shakllantirilishi kerak. Investitsiya muhitining umumiy yo'nalishi va investitsiyalarning daromadliligi investitsiyalar portfeli tarkibiga bog'liqdir. Investitsiya muhitini rivojlantirish imkoniyatlari ko'p jihatdan moliyalash manbalarini muvaffaqiyatli qidirib topishga, investitsiyalarning O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelishini nazorat qilish va rag'batlantirishning eski mexanizmlarini isloh etish va yangilarini ishlab chiqishga bog'liq.

Ilmiy maqola yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar va takliflarni berish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni investitsiyalarni jalb etishda, investitsiya muhitini davlat tomonidan tartibga solishda monopoliyaga qarshi muhitni yaratishga, raqobatchilikni rag'batlantirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini keng ko'lamda qo'llab-quvvatlashga, samarali soliq siyosatini amalga oshirish zarur.
2. Qayta moliyalash stavkalari bo'yicha investitsiyalarni asosiy sarmoyaga taqsimlanishi byudjet mablag'lari hisobidan investitsiyalar ko'payishini, moliyalash manbalari sifatida byudjetdan tashqari fondlar investitsiyalar umumiy hajmining yarmidan ko'prog'ini tashkil etishini ta'minlab beradi.
3. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish maqsadi ko'ra, moliyaviy investitsiya manbalari cheklangan bir sharoitda moliya-ishlab chiqarish uyushmalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida esa me'yoriy va xuquqiy bazaning takomillashtirilishi zarur. Ushbu uyushmalar tarkibida tijorat banklari muhim o'rinni egallashi keark.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022 yil 28 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459- soni qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil 28 dekabr, № 258 (6952)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 oktyabrdagi "2019-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639 sonli Qarori // "Xalq so'zi", 2018 yil 25 oktyabr.
4. K.B.Tursunov, N.R.Rajabov., Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish, «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» Toshkent – 2021//6-9 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy sayti. <https://Stat.uz>.